

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ



ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ
ИНСТИТУТИ

Муҳандис - техника факультети 5610100 - “Фермер хўжалигини
бошқариш ва юритиш” таълим йўналиши IV-курс талабаси
ҚОДИРОВ ШАХРИДДИН РИЗАМАТОВИЧнинг

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ


Мавзу: Текис ва нотекис ерларда ғўзани суғоришнинг пахта
ҳосилига ва сувнинг самарадорлигига таъсири

Илмий раҳбар:


(имзо)

доц. С.Шахобов

Ишни бажарувчи:


(имзо)

Ш.Қодиров


«Ҳимояга рухсат этилди»

кафедра муdiri,


доц. А.А.Абдиев
« 22 » 06 2013 йил

«Ҳимояга учун ДАКга юборилди»

Факультет декани:


доц. М.Н.Аликулов
« 22 » 06 2013 йил

Қарши - 2013 йил

**5610100 – “Фермер хўжалигини бошқариш ва юритиш”
бакалавр таълим йўналиши**

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
«ҚХМС ва ДИТ» кафедраси мудир
доц. А.А.Абдиев
« 20 » 05 2013 йил.

ТОПШИРИК

Талаба Қодиров Махриддин Қизилбай угли

1. Битирув иши мавзуси "Техме ва' мотамме ерларда,
бузакм сугорилишмига нотиб юрмиш ва,
сугуммиг Самарқандорлимига таъсирин"

Институтнинг №553 буйруғи билан 2012 йил 29 ноябрда тасдиқланган.

2.Талабанинг тугатган битирув ишини топшириш муддати

22.05.2013г

3. Битирув иши учун маълумотлар

1. Илимий адабиятлар, Ҷомӯи тўрмоқлар
2. Фермер ҳўжалиги ҳақида маълумотлар
3. Ҷаҳоний маълумотлар
4. Интернет маълумотлари

4.Хисобий изох қисмининг мазмуни (ишлаб чиқилиши лозим бўлган саволлар рўйхати)

1. М. Садикова и Ғафур Ғафурови Ғафурови Ғафурови
2. Ғафур Ғафурови Ғафурови Ғафурови
3. М. Садикова Ғафур Ғафурови Ғафурови
4. М. Садикова Ғафур Ғафурови Ғафурови
5. М. Садикова Ғафур Ғафурови Ғафурови

5. Чизмалар руйхати (бажарилиши шарт бўлган чизма ва графиклар)

Һәр бер бәләннән ва җылыкта ошд нәһ-
валлар, җылыктагылар раслар берләшә.

6. Битирув иши бўйича маслахатчилар (уларга тегишли лойиха бўлимидан кўрсатилсин)

7. Малакавий битирув иши бажарилиши бўйича календар график.

Хафта лар сони	Малакавий битирув ишининг бўлимлари	Ҳажми, бет	Умумий ҳажмга нисбатан, %	Бажарил ганлиги тўғриси даги белги	Изоҳ
I	1. Қирғиз 2. Фермер ҳўмедалиги нинг Ўзбекистон давлати 3. Ҳўме-иш мўрнинг ишрофлари 4. Ҳўме-иш бўрнинг-иш ишрофлари	2-3 2-3 3-4 4-5	3,3-4,2 3,3-4,2 5,0-5,5 6,6-6,9	Бате-ди Бате-ди Бате-ди Бате-ди	
II	1. Мавзунинг асослари 2. Адабийатлар тақдими 3. Техниканинг дара- жаси ҳар қанча бўл- ган ҳақларда иш- ташқирнинг қаринда- ларини тақдими қилиш	2-3 9-10 15-16	3,3-4,2 15,0-13,9 25,0-24,1	Бате-ди Бате-ди Бате-ди	
III	1. Техник ва қўғиш ерларда қўғиш ва қўғишнинг тақдими қўғиш ва қўғишнинг ва- қаринда қўғиш ва 2. Техниканинг дара- жаси ҳар қанча бўлган ҳақларда қўғиш ва қўғишнинг қўғиш ва қўғишнинг қўғиш ва	5-6 4-5	8,3-8,3 6,6-6,9	Бате-ди Бате-ди	
IV	1. Қўғишнинг қўғиш ва қўғишнинг қўғиш ва 2. Қўғиш ва қўғишнинг 3. Қўғиш ва қўғишнинг қўғишнинг қўғиш ва	6-7 7-8 1-2	10,0-9,7 11,6-12,5 1,6-2,8	Бате-ди Бате-ди Бате-ди	
		60-72	100-100	Бате-ди	

Малакавий битирув иши раҳбари

Маслаҳатчи:

Топширик олинган кун

Талаба

[Signature]

27.05.2013

[Signature]

M U N D A R I J A

	KIRISH	
I.	UMUMIY QISM	
1.1	Bitiruv-malakaviy ish bajarilgan fermer xo'jaligining qisqacha tavsifi	
1.2	Xo'jalik xududining iqlim sharoiti	
1.3	Xo'jalik xududining tuproq-melorativ sharoitlari	
II.	TEXNOLOGIK QISM	
2.1	Mavzuni asoslash uning maqsadi hamda vazifalari	
2.2	Mavzu buyicha ilmiy adabiyotlar tahlili	
2.3	Tekislanish darajasi har xil bo'lgan dalalarda g'o'zani sug'orish rejimning o'simlikning o'sishi rivojlanish va xosildorligiga ta'sirini o'rganish buyicha o'tkazilgan tajriba natijalarining tahlili	
2.4	Tekis va notekis erlarda g'o'zani sug'orishni tashkil etish va suvning samaradorligini oshirish	
III.	AMALIY QISM	
3.1	Tekislanish darajasi har hil bo'lgan dalalarda paxta etishtirishni tashkil etish agroiqtisodiy samaradorligi	
3.2	Paxta etishtirishda mexnat muxofazasi	
3.3	Paxta etishtirishda atrof-muhit muxofazasi	
3.4	Xulosa va takliflar	
3.5	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
3.6	Internet ma'lumotlari	

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin er va suv resurslariga bo'lgan munosabat tubdan isloh qilina boshlandi. Respublikamizda er va suv manbalaridan oqilona va samarali foydalanishga qaratilgan qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Vazirlar mahkamasining 1993-1994 yillarda erlarni o'zlashtirish va qadimdan sug'oroladigan erlarni tamirlanishga doir shoshilinch choralar tug'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasi oily majlisining "suvdan foydalanish tug'risida" (1993 y), "er solig'i tug'risida"(1993 y), "O'zbekiston Respublikasining er kodikisi" (1998 y), "qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)"to'g'risida (1998 y) "Fermir xo'jaligi tug'risida", "Dexqon xo'jaligi to'g'risidagi" (1998 y) qonunlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil noyabrdagi PH-205 sonli "2006 yilda qishloq xo'jalik kooperativlarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori va O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jalik vazirligining 2005yil 18 noyabrdagi 237-sonli "fermer xo'jaligini yuritish uchun er uchastkalarini berishda tanlab g'oliblarini aniqlash tartibi tug'risida" gi nizomini tasdiqlash haqidagi qarorlarni chiqarildi. Hozirgi vaqtda yoqorida qayd etilgan qonun va qarorlar asosida qishloq ho'jaligida tub islohatlar amalgam oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimovning tashabbusi bilan qishloq xo'jaligini, xususan dexqonchilikni yanada rivojlantirishga qaratilgan muxim ijobiy ishlar qilinmoqda. Dexqonchilikka oid zamonaviy texnika va texnologiyalar har hil tuproq-iqlim sharoitida sinab ko'rilmogda va amalgam qullanilmogda. Ko'pdan-ko'p xorijiy investetsiya ishlab chiqarishning yordamchi tarmoqlariga yunaltirilmoqda. Respublikadagi mavjud tabiiy zaxiralardan (er-suv resurslaridan) oqilona foydalanishga katta etibor berilmogda.

Prezidentimiz I. Karimovning 1998 yildagi chop etilgan "Qishloq xo'jaligi taraqqiyiti tukin xayot manbayi nomli kitobida" qishloq xo'jaligini tubdan islox qilishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqarilgan. Maskur kitobda

dexqonchilikni rivojlantirish yullari bilgilab berilgan, dexqonchilikning rivoji esa dexqonlarga egalik xissini uyg'otish bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatilgan

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrda elon qilingan erlarning meliorativ xolatini yaxshilashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari xaqida farmoniga asosan har bir viloyatning sharoiti uchun alohida meliorativ o'triyadlar tuzildi. Vazifa shundan iboratki shurlangan yoki shurlanishga botqoqlanishga moil erlarda yangi-yangi zovurlar qazish eski zavur tarmoqlarini tamirlash, erlarni kapital va joriy tekislash kabi muxim meliorativ ishlarni amalga oshirishga ekishishdan iboratdir.

Ma'lumki Qashqadaryo viloyatida suv resurslari cheklangan suv doimo minimumda turuvchi omil pphisoblanadi. SHu bois g'o'za va qishloq xo'jalik ekinlarini suv bilan taminlashda mavjut barcha suv resurslaridan radioqilona foydalanish xamda ishlab chiqarishda suvdan samarali foydalaniashni tamin etilgan texnologialar qullash nixoyatda muximdir.shuning so'g'orish suvini tejashni tamin etadigan texnologialardan keng foydalanish zarur misol uchun erlarni joriy va kapital tekislash,so'g'orishda sifon naylarda, eguvchan quvirlardan foydalanish, sog'orishda tomchilab so'g'orish usulini qo'lash kabi ilg'or texnologiyalar so'g'orish suvidan tijab –tergab unimli foydalanish imkonini beradi.

Erlarning tekislanish darajasi sug'orish suvidan tejamkorlik bilan foydalanishda doim muhim rol o'ynaydi.

Mening bitiruv-malakaviy ishim ana shu muammoni chuqurroq o'rganishga qaratilgandir.

I. UMUMIY QISM

1.1. Bitiruv-makaviy ish bajarilgan fermer xo'jaligining qisqacha tavsifi.

Mening bitiruv malakaviy ishim Qarshi tumanidagi "CHuli ota" fermerlar uyishmasiga qarashliy "Jahongir ota" fermer xujaligi misolida bajarildi.

Xo'jalik paxta va don etishtirishga iqtisoslashgan. Fermer xo'jaligining umumiy er maydoni oxirgi 3 yilda 2010 yilda-30ga, 2011 yilda va -30 ga va 2012 yilda-40 gektarni tashkil etadi. SHundan paxta uchun ajratilgan maydon 2010-2011 yillarda 15 gektarni 2012 yilda esa 20 gektarni yani teng yarmini tashkil etadi.

Xo'jalik oxirgib3 (2010-2012) yilar davomida paxtadan 28,6-31,4 st don xosil ko'tarilgan. G'alla buyicha esa shu yillar moboynda xosildorlik gektari boshiga 44,2-47,5 st ni tashkil etgan.

Xo'jalik 2010 yilda 20,3 mln, 2011 yilda 12,9 mln, 2012 yilda 10,6 mln sum sof dsromat olingan, uning rentabillik darajasi tegishli xolda 42%, 39% va 38% ni tashkil etgan. Fermer xo'jaligida bir ishchining o'rtacha bir oylik ish xaqi 2010 yilda 35ming, 2011 yilda 40 ming va 2012 yilda 45 ming sumni tashkil qildi.

Ushbu taxlildan ko'rinadiki fermir xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatgichlari talablar darajasida emas. Buning bosh sababi go'zava donli ekinlarning hosildorligi xamon pastligicha qolmoqda. SHunga bog'liq xolda bir ishchining oylik maoshi ham juda kam. Ekinlar hosildorligining pastligi erlar meliorativ holatining yomonligi bilan ifodalanadi: sizot suvlari ko'tarilgan, erlar o'rtacha, ba'zi dalalarda kuchli darajada shurlangan, drenajlar esa ishlamaydi.

Erlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ichida bedaning "biomelioratorlik" roliga e'tibor berilagan. Xo'jalikda almashlab ekish joriy qilinmagan, faqat paxtaning boshoqli ekinlar bilan navbatlab ekish mavjut xolos.

O'z-o'zidan ma'lumot bunday sharoitda tuproqning unimdorligi ko'tarilmayni. Agar xo'jalikda tarkibida beda bulgan almashlab ekish sxemasi joriy etilgan edi, u xolda bir tomondan sizot suvlari satxi pasayishi xisobiga tuproqning ikkilamchi shurlanish oldi olinar edi, ikkilamchi shurlanish oldi olinar edi, va ikkinchidan erda organic moddalarning tuplanish hisobiga tuproqning unimdorligi oshirilgan bo'lar edi.

Erlarning meliorativ holatini belgilovchi omillardan yana biri-bu dalalarning tekislanish darajasidir. Fermer xo'jaligida paxta maydonlarning yarmidan ortig'ida erlar notekis. Tekis erlarda g'o'za bir tekis o'sib rivojlanadi, ko'saklar erta etilib pishadi, paxta yi'im terimi xam erta boshlanib, erta tamomlanadi. Notekis erlarda fermer ko'p sarf-xarajatlar qiladi, etishtirilgan paxtaning tannarxi oshadi, maxsulot sifati esa pasayadi.

Men fermer xo'jaligida bajariladigan dala ishlari bilan tanishdim, xamda tagishli xulosalar chiqardim.

1.2. Xo'jalik hududining iqlim sharoitlari.

Xo'jalik hududining iqlim sharoitlari Qashqadaryo viloyatining g'arbiy shimoliy xududining tabiiy iqlimini xarakterlaydi.

G'arb tomondan, yani qizil qumdan esadigan yozning issiq garmsellari, qishning sovuq oqimlari muborak tumanidan o'tib birdaniga Mirishkor, Kasbi, Koson va Qarshi tumanlari xududlariga kirib keladi va ob-xavoni keskin o'zgartirib yuboradi. Tuman mintaqasining iqlimi kontenental:qishi sovuq, yozi o'rtacha issiq va uzun, tez-tez garmsel shamollari bo'lib turadi, kuzi issiq va uzun,bahori esa lekin seryog'in.

Xujalik hududining iqlim sharoitlarini xarakterlovchi ma'lumotlar 1.2.1 va 1.2.2- jadvallarda keltirilgan. Qarshi meteostansiyasining bergan ma'lumotlariga ko'ra bizning xududimizda havoning o'rtacha sutkalik harorati ko'p yillik kuzatuvlar (miqdori esa har oyida) bo'yicha 15,8 C ni, havoning o'rtacha sutkalik nisbiy namligi 57,9 % ni, o'rtacha shamolli kunlar miqdori esa har oyda 12 kunni tashkil etadi. Yillik yog'in-sochinlar ko'p yillik malumotlar bo'yicha jami 251 mm ni tashkil etadi.

Yilning eng sovuq davri yanvarda havo harorati +0.6 C gacha tushadi, eng issiq davr iyulda bu ko'rsatgich o'rtacha +29.9 C gacha ko'tariladi. Natejada o'suv davrida bo'g'lanishlar miqdori 1300 mm gacha etadi va nam taqchilligi 1240 mm ni tashkil etadi. Mintaqada issiq kunlar miqdori 213 kunni tashkil etadi. Shu issiq

kunlar ichida +10 C dan yuqori bo'lgan samarali haroratlar yig'indisi 2804 C gacha yitadi.

Tahlildan ko'rinadiki, xo'jalik xududining iqlimi o'ta quruq, nam taqchilligi juda katt, shamolli kunlar tez-tez takrorlanib turadi. Bunday sharoitda dehqonchilik yuritishda sug'orish suvining ahamiyati beqiyosdir. Shu bois sug'orish suvidan tejab tergap foydalanish yullarini toppish bugungi kunning dolzarb muommosidir.

Mintaqada och tusli bo'z, taqir va taqir simon, sur tusli qung'ir va qumli hamda qumloq tuproqlar tarqalgan. Maskur tuproqlarning unumdorligini oshirish sug'orish rejimiga uzviy bog'liqdir.

Taxlildan ko'rinadiki, xo'jalik xududining iqlimi o'ta quruq, nam taqchilligi juda katta, shamolli kunlar tez-tez takrorlanib turadi. Bunday sharoitda dehqonchilik yuritishda sug'orish suvining ahamiyati beqiyosdir. Shu bois sug'orish suvidan tejab-tergap foydalanish yullarini toppish bugungi kunning dolzarb muommosidir.

1.3 Xo'jalik xududining tuproq meliorativ sharoitlari.

Bitiruv malakaviy ishi bajarilgan xo'jalik qarshi chulining janubiy sharqiy qismida joylashgan bo'lib, o'simliklar qoplami 30-40 % bo'lib, o'simliklar dag'al poyali, tikanli tulqorin, shuvoq, burgan, yantoq, jinkak kabi cho'l sahro o'simliklaridan iborat.

Shunga mand holda bu joylarga taqirsimon va suv-tusli qo'ng'ir qumli qumloq tuproqlar taqalgan bo'lib ular kamunim agrofizikaviy xususiyatlari yomon shurlangan yoki shurlashga moyil tuproqlardir. Biz tajribada o'tgazgan tuproqlar taqirsimon tuproqlar bo'lib ular o'z xususiyatlarga ko'ra taxirlardan boshqa bir tibdagi tuproqlarga o'tuvchi tuproqlar hisoblanadi.

Taqirli tuproqlar qurigan allyuvial va prayuvial –allyuvial tekisliklarda jumladan daryo vodiylari xamda ditallarda keng tarqalgan.

1.3.1 Taqirsimon tuproqlarning morfologik tuzilishi.

Taqirli tuproqlarning yuzasida uncha mustaxkam bo'lmagan 2-6 sm keladigan va darzlarga bo'lingan qatqaloq qatlamlar bo'ladi. Undan pastdagi qatlam tamgacha simon och kulrang-buzg'ish yuki och qo'ng'ir tusli qatlam uncha yaxshi shakillanmagan.

Bu qatlam ostida 20-30 sm qalinlikda sturukturasiz biroz zichlangan qatlam uchraydi. Undan pastki qatlamning morfologik xususiyati ona jinslarining xususiyatlariga bog'liq xolda o'zgaradi. Taqirli tuproqlarga gipsli va karbanatli qatlamlar uncha aniq ifodalanmagan.

Taqirsimon tuproqlar taqirlarga nisbatan gumusga boy bo'lib, suv-fizik xossalarining ancha yaxshi va qulay bo'lganligi ham harakterlanadi. Boshqa xususiyatlari bo'yicha taqirlarga yaqin turadi. Bu tuproqlar cho'l zonasida ancha ko'proq o'zlashtirilgan

1.3.2 Taqirsimon tuproqlarning tarkibi va xossalari.

Taqirsimon tuproqlarning mexanik tarkibi xilma-xildir. Qumoq tarkibli ko'proq tarqalgan bo'lib, ularning soz, qumoq va qumli xillari ham uchrayidi. Qatqaloq ustida ko'proq qum to'planganligi harakterlidir.

Qatqaloq osti va sho'r tobli qatlami ancha og'ir mexanik tarkiblidir. Taqirsimon tuproqlarda taqirlarga nisbatan gumus ko'proq 0.5-1.0%. ammo allyuvial-o'tloq tuproqlardan xosil bo'lgan taqirli tuproqlardan gumus miqdori 1.2-1.5% va undan ham ko'proq bo'ladi.

Azot miqdori 0,04-0.06% fosfir 0.120-0,140 harakatchan fosfor tuproqning yuqori qatlamlarida ko'proqdir(40-43)mg/kg).Bu tuproqlarkaliga boy bo'ladi .(1,75-1,84).Karbanatlar tuproq tik pirofili bo'ylab tekis tarqalgan.

Taqirsimon tuproqlarda gumi,azot,fosfor,kaliy,va karbanat
angidrid miqdori, %

Qatlam sm	gumus	azot	Fosfor		Yapi kaliy	CO ₂
			jami	Harakatchan mg/kg		
Taqirli tuproqlar. Qarshi chuli. (B.V. Gorbunov)						
0-8	0.69	0.960	0.124	42,56	-	7,64
10-20	0.58	0,060	0.115	16,22	-	9,17
60-70	0.30	0.046	0.127	16,36	-	9,76
110-120	-	-	0.134	16,92	-	9,76
Sug’oriladigan taqirli tuproqlar Qarshi cho’li(A.Rasulov).						
0-25	0,61	0,048	0,140	-	1,84	8,16
25-49	0,48	0,040	0,110	-	1,84	8,38
49-72	0,42	0,45	0,045	-	1,91	9,21

1.3.3. Taqirli tuproqlarning meliorativ xolati.

Sho'rlanish darajasiga ko'ra taqirli tuproqlar quyidagi guruxlarga ajraladi:

1. sho'rlanmagan.
2. sho'rxoksimon.
3. shuqxokli.

Tuzlar tarkibiga ko'ra taqirli tuproqlar sulfatli yoki xlorli bo'lib, ko'pincha sulfatli-xloridlitipga kiradi. Odatda taqirli tuproqlarning ustki qatlamlari uncha shurlanmagan. Ona jinslarda tuz ko'proq to'plangan bo'ladi. Sizot suvlari yaxshi oqib ketmaydigan va yer ustidan normadan oshiqcha sug'orilganda bu tuproqlar kuchli shurlanish xususiyatiga egadir. Qatqaloqli qatlami kuchli ishqoriy reaksiyaga ega.

Taqirli tuproqlar orasida shurtobli xillari ham uchraydi. Shurlanmagan taqirli tuproqlarda singdirish sig'imi uncha katta emas (100 g tuproqda 7-9 mg/ekv). Shurtobli qatlamda ancha yuqori (15-16 mg/ekv) bo'ladi. Singdirilgan kationlar

tarkibida kalsiy ko'p. Shurtobsimon taqirli tuproqlarda singdirilgan natriy kationlarining umumiy yig'indisiga nisbatan 5-8% va qatqaloqli qatlama nisbatan natriy kamroq.

1.3.4. Taqirli tuproqlarning fizik xossalari.

Taqirli tuproqlarning fizik xossalari taqirga nisbatan ancha yaxshi. Shurtoblanmagan taqirli tuproqlarning qatqalog'I ham uncha mustaxkam emas va kam zichlangan. Uning hajmiy massasi 1,3-1,4 g/sm³, ni tashkil etadi. Tuproq ostgi jinslarning zichligi uni mexanik tarkibiga bog'liq va gol (soz)da o'rtacha 1,47 - 1,53 g/sm³ ni qumolarda 1,40-1,47 g/sm³, qumloq va qumlarda 1,38-1,40 g/sm³ ni tashkil etadi.

Taqirli tuproqlarning qatqalog'ida umumiy kovakligi 42-43 %, qatqaloq ostida 48-49 %. Sug'oriladigan taqirli tuproqlarda umumiy kovakligi yanada ko'proq.

Maksimal gidroskoplik tuproqning mexanik tarkibiga ko'ra 3-7 % orasida bo'ladi. Taqirli tuproqlarning suv o'tkazuvchanligi taqirlarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Uzoq muddatli sug'orishlar natejasida gumus miqdori va chirindili qatlam qalinligi ortib boradi.

Har yili yerga solinadigan meniral va organik o'g'itlar sug'oriladigan taqirli tuproqlardagi azot va fosfor miqdorini ko'payishiga olib keladi.

1.3.4.1-jadval

Taqirli tuproqlarning fizik xossalari.

Tuproq va joining nomi	Qatlam sm	Zichligi g/sm ³	Qattiq faza zichligi	Umumiy kovaklik	Maks gidros kobligi
Taqirli tuproq Qarshi chuli (M.Umarov)	0-5	1,42	2,69	42-2	3-49
	5-12	1,38	2,70	48,9	4,98
	12-34	1,47	2,72	46,0	5,91
	34-85	1,38	2,74	42,9	7,41
Sug'oriladigan	0-15	1,35	2,72	50,4	4,81

Taqirli tuproq	15-37	1,38	2,73	49,5	6,43
Qarshi chuli	37-70	1,46	2,74	46,7	5,80
(M.Umarov)	70-110	1,41	2,72	53,3	3,97

1.3.5. Taqirli tuproqlardan qishloq xujaligida foydalanish

O'zlashtiriladigan taqir tuproqlarning unumdorligini oshirish uchun asosan quyidagi agromeliorativ tadbirlarni amalgam oshirish tavsiya etaladi:

1. Yerga organik o'g'itlar solish va turli o'tlar ekish bilan (sideratlar) tuproqlardagi organik moddalar miqdorini ko'patirish;
2. Azot va posforli o'g'itlardan keng foydalanish;
3. Taqirli tuproqlarning haydalma osti qatlamini oz-ozdan chuqurlashtirib boorish yo'li bilan yerga ishlov berish;
4. Shurlangan yerlarni yuvish va qish mavsumida yerga yaxob berish, kollektor- zovur tizimlarini tartibga solish;
5. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur va h.k.

2.1. Mavzuni asoslash, uning maqsadi hamda vazifalari.

Paxta yakka xokimligi tufayli bir dalada surinkasiga 10-20 yillab paxta ekilaverishi oqibatida sug'orma yerlarning meliorativ holati yomanlashib ketdi. Bunga bundan tashqari sug'orma yerlarning notekisligi hamda jinlarni sug'orish me'yorlarining oshishi va texnikasining buzilishi ham sabab bo'ldi.

Bu holatlarning barchasi birgalikda ko'pgina salbiy oqibatlarni yuzaga keltirdi. Xususan, zax suvlar ko'tarildi, yerlarb ikkilamchi shurlandi, dalalarni begona o't bosti, qishloq xo'jalik ekinlarining kasalliklari hamda zarar kunandalari ko'paydi. Ularning yangi-yangi turlari paydo bo'ldi. Bu salbiy xolatlarning barchasi birgalikda hosildorligining kamayishiga olib keldi. Jumladan xuddi shunday holatlar bizning fermer xo'jaligimizda ham vujudga keldi.

Sug'orma dehqonchilikda yerlarning tekislanish darajasi sug'orish suvdan tejab-tergab fodalanishda muhim o'rinni egallaydi.

Yerlar notekis bo'lganda bir joy ko'llab, bir joyi es cho'llab suv ichadi. Oqibatda ko'llangan joyda ham, cho'llangan joyda ham g'o'za yomon o'sadi va uning hosildorligi pasayadi. Yana bir salbiy oqibat shundan iboratki, notekis yerlarda sug'orish natejasida dog'simon shurlanish yuzaga keladi. Shu bilan birga notekis yerlarni sug'orishda suv sarfi oshib ketadi. Shu bois notekis dalalarda g'o'zani sug'orishni tug'ri tashkil qilish muhim axamyatga ega.

Mening bitiruv makaviy ishimng maqsadi-tekis va notekis yerlarda sug'orishni tashkil etish tadbirlarining sug'orish suvining samarasiga va g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va xosildorligiga ta'sirini o'rganidan iboratdir.

Makaviy ishimng vazifalari quydagilardan iborat.

1.Shartliy xo'jalik yerlaring meliorativ sharoitlarini ya'ni zax suvlar chuqurligi, sho'rlanish darajasi, sug'orma yerlarning tekislanganlik holatlarini o'rganish;

2.Xo'jalikda g'o'zani sug'orish rejimi texnikasi va texnologiyasini o'rganish;

3.Tekis va notekis yerlarda g'o'zani sug'orishni tashkil etishni o'rganish;

4.G'o'zani sug'orish rejimi, texnikasi va sug'orishni tashkil etish bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil etish;

5.Tekis va notekis yerlarda olimlar tomonidan o'tkazilgan tatqiyqot ishlari natijalarini tahlil qilish;

6.Tekis va notekis yerlarda sug'orishni tashkil qilishning agroiqtisodiy samaradorligini aniqlash;

7.G'uzani sug'orishni tashkil etishda mehnat va atrof-muhit muhofazasini o'rganish;

8.Bajarilgan ishlar natijalari bo'yicha xulosalar chiqarish va ishlab chiqarishga takliflar berish.

2.2. Mavzu bo'yicha ilmiy adbiyotlar taxlili.

Ko'p yillik ilmiy-tadqiyqot ishlarining natijalariga ko'ra sug'oriladigan dehqonchilikda yerlarning unumdorligi 3-5 barobar yuqori. Bunda hosil miqdori

ortadi, uning sifati yaxshilanadi. Shu bilan birga barcha agrotexnik tadbirlarning samarasi oshadi.

Ammo sug'orish natijasida zararliy oqibatlariga ham duch kelinadi. Xususan, tuproq zichlanadi, uning agrofizik xususiyatlari yomonlashadi, strukturasi buziladi, dalalarni begona o'tlar bosadi, dalada yangi hashoratlar, kasalliklar paydo bo'ladi, yer osti suvlari satxi ko'tariladi va nihoyat ikkilamchi sho'rlanish yuzaga keladi. Shu tariqa yerlarning unumdorligi pasayadi. V. M. Legostayev (1955) ko'p yillik ilmiy tatqiqot ishlarini umumlashtirib quydagi xulosalarga keladi.

1. Yerlarning meliorativ holatining buzilishiga ekinlarni sug'orish rejimi, bunda sug'ori normalari bosh ro'l o'ynaydi. Sug'orish normalarining ortishi bilan yer osti suvlarining ko'tarilishi kuchayadi va uzoq davr davomida ko'tarilgan holatga turadi.

2. Yer osti suvlarining ko'tarilishiga tuproqning namligi katta rol uynaydi. Tuproqning sug'orish namligi ortishi va sug'orish oldi namligi ortishi bilan er osti suvlarining sathi ko'tarila boshlaydi.

3. Yerlarning meliorativ holati yer osti suvlarining chuqurligiga bog'liq. Yer osti suvlari yer betiga qancha yaqin joylashsa, sug'orishda ular shunchalik ko'p ko'tariladi.

V.M. Legostaevning bunday qimmatli ilmiy fikrlarga amalqilgan ko'pgina tadqiqotchi olimlar g'o'zaning sug'orish rejimini optimallashtirish ustiga ilmiy ishlar olib borishdi.

S.N. Rijov (1948) uzoq yillar davomida Farg'ona sharoitida olib brogan ilmiy- tatqiqot ishlarining natijalariga asoslangan holda vodiyning tipik bo'z tuproqlari sharoitida g'o'zani sug'orishda tuproqning sug'orish oldi namligining optimal miqdorini ishlab chiqdi,

Farg'ona vodiysi sharoitida tuproqning sug'orish oldi namligini uning kichik dala nam sig'imiga nisbatan g'o'za gullashigacha 70 %, gullash-hosil tuplash davrida 70 % va ko'saklar ochilishi fazasida 60 % da ushlab turish optimal

ekanligini isbotladi. Bu qatlamli ilmiy materiallar olimlarimizning keyingi yillarda olib borgan ilmiy- tatqiqot ishlarida standart fazasini o'tab kelmoqda.

Qaysi tatqiqotchi sug'orish bo'yicha ilmiy ishlar olib borsa S. N. Rijovning tavsiya etgan shu rejimini qiyoslovchi standart sifatiga tajriba sxemalariga kiritadilar.

Mednis P. M (1949-1956) o'zoq yillar moboynda O'zbekistonning barcha ma'muriy viloyatlarida ko'p seriyali ilmiy- tatqiqot ishlari olib borib ularning natejalariga tayanib shunday xulosalarga keladi.

1. G'o'zaning suv rejimi uning turiga, nav xususiyatlariga, tuproq-iqlim sharoitlariga, yerlarning shurlanish darajasiga, yer osti suvlarning normalariga, ekin sxemasi, ko'chat qalinligiga, agrotexnika talablarini to'g'ri bajarilishiga, texnologiyaning intensivligiga va shu kabi faktorlarga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

2. Tuproqning sug'orish oldi namligining optimal miqdori, g'o'zaning suv rejimi(sug'orish muddatlari soni va normalari) va suv iste'mol (g'o'zaning umumiy suv sarfi) yuqorida ko'rsatilgan har bir factor uchun alohida ishlab chiqilishi va amaliyotga tavsiya etilishi zarur.

Geldiev S.A. (1965) o'rta pishar 108-F va 153-F navlari uchun tuproning sug'orish oldi namligining 70-70-60 % da tutun turish yaxshi samara berishini aniqladi. Tazpishar S-4722 va S-8238 navlari uchun esa tuproq nomi yuqoriroq darajada 75-75-60 % da tutib turish uchun zarur ekanligini isbotladi.

Bespolov N.F (1959-1963) "Pazta orol" savxozi sharoitida olib borilgan ilmiy ishlarida aniqlanishcha sho'ri yuvilgan erlarni yomg'irlatib sug'orishda (dala nam sig'imiga nisbatan) bo'lishligini isbotladi.

Gusinov G.M. (1965) engil mexanik tarkibli tipik bo'z tuproqlar hamda kuchsiz va o'rta pishar sho'rlangan o'tloq va o'tloq-bo'z tuproqlar uchun tuproqning sug'orish oldi namligini dala nam sig'imiga nisbatan 75-75-65 % da, og'ir tuproqlarda esa 70-75-65 % da hamda har xil qatlamli qovushmadan iborat bo'z tuproqlarda 65-70-55 % da tutib turish optimal hisoblanadi.

Donilov A.S. (1963) Vaxshi vohasi sharoitida ingichka tolali g'o'zani sug'orishda ingichka tolali g'o'zani sug'orishda tuproqning sug'orish oldi namligini 70 % va 70-45 % da tutib turish maqsadga muvofiq deb ko'rsatadi.

Mednis M. P, Shaxobov S.Sh. va boshqalar (1975) qarshi chulining taqirsimon tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zaning suv rejimini ishlab chiqishda tuproqning namligi yer osti suvlari 1-2 m chuqirlikda dalalarda 70-70-65% da shurlangan yerlarda hamda sizot suvlari 2-3 va 3-4 chuqirlikda turgan maydonlarda esa 70-75-65 % da tutib turilganda g'o'za yaxshi o'sadi, rivojlanadi, xosili ko'payadi va erlarning meliorativ xolati yaxshi saqlanadi.

Yuqorida takidlaganidek g'o'zaning suv rejimi va suv istemoli juda ko'p faktorlarga, shulardan bir ko'chat qalinligidir. O'simliklar fiziologiyasidan shu narsa ma'lumki, malum maydonda birligida o'simlik soni qanchalik ko'p bo'lsa yani ular qanchalik zich bo'lsa va barglari ko'p bo'lsa suv sarfi shunchalik katta bo'ladi.

Gorenberg Ya. X. (1960) Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida ko'chat qalinligi gektariga 80 va 120 ming tup bo'lganda tuproqning sug'orish oldi namligini 65-70 % ga 160 tup va undan ortiq bo'lganda esa 70-75 % ga tutib turish samarali ekanligini aniqladi.

M.P. Mednisning (1973) takidlashicha tup sonining ortishi bilan har bir o'simlikka tug'ri keladigan yorug'lik, ozuqa moddalari miqdori kamayadi, oqibatda o'simlikning o'sishi susayadi, barg maydonlari ozayadi, fotosintez intisivligi pasayadi, tuproqning namligi kamayadi. O'simliklar bir-biriga soya berishi natejasida meva elimentlarining to'kilishi kuchayadi. Lekin tub sonini ma'lum bir chegaragacha oshirish barglar yuzasiga tushadigan yurug'likdan foydalanishi darajasi oprtadi, o'simlikning quruq biologic massasi ko'payadi va paxta xosili oshadi.

2.3. Tekislash darajasi har xil bo'gan dalalarda g'o'zani sug'orish rejimining o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini o'rganinsh bo'yicha o'tkazilgan tajriba natejalarining taxlili.

Yuqorida bayon etilgan adabiyotlar taxlilidan shu narsa ma'lum bo'diki, g'o'zani sug'orish rejimi yerlarning meliorativ xolatiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi factor ekan. Sug'orish normalarini ortishi bilan yer osti suvlari satxi ko'tarilar ekan.

V.M. Legostaevning (1959) fikricha yer osti suvlarining ko'tarilishi sug'orishning boshlanishi bilan boshlanadi. Bunda sug'orish uchun berilgan suv yer osti suviga qo'shilmasa ham sizot suvlari ko'tariladi. Sababi, sug'orish davrida o'simlikning suvni tanspiratsiyaga sarflashi va yer chetidan suvning atmosferaga bo'g'lanishi yer osti suvlaridan emas, balki sug'orish natejasiga berilgan suv xisobidan sodir bo'lar ekan. Dalada sug'orish davom etayotgan davrda yer osti suvlarining ko'tarilishi bu suvlarning tarspiratsiya va parlanishga sarfining kamayishi va boshqa dalalarda sizib o'tishib hisobiga sizot suvlarining satxi ko'tarilar ekan.

Ma'lumki, ho'jaliklarda sug'orish me'yorlari tavsiya etilgan optimal miqdorlarda keskin farqlanadi. Masalan, domlamiz S.Shaxobov ma'lumotlariga ko'ra ho'jalikda mavjud bo'lgan sug'orish rejimi bo'yicha g'ozani sug'orish meyorlari mavsumda $1100 \text{ m}^3/\text{ga}$ dan $3500 \text{ m}^3/\text{ga}$ gacha miqdorni tashlik etar ekan.

Ko'pgina joylarda sug'orish meyerlarining keskin oshib ketishida dalalarning tekislanish darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Men o'zimning bitiruv malakaviy ishimda domlamiz S.Shaxobovning raxbarligida 1997 yilda qarshi tumanidagi A.Ikromov nomli J.Sh. xo'jaligi sharoitida o'tkazilgan tajriba ma'lumotlarni tahlil qildim.

Tajriba o'tkazilgan xo'jalikning tuproq sharoitlari qiydagilar bilan xarakterlanadi:tuprog'i-och tusli bo'z, mexanik tarkibi engil, o'rta, og'ir qumoglardanhatto qumli va qumoglardan tashkil topgan.

Meliorativ holatiga ko'ra dalalar shurlangan, yer osti suvlari aksariyat yerlarda yuza joylashgan (1,5-2,5 metr gach) drenajlar kam o'tkazilgan, mavjudlari ham yaxshi ishlamaydi. Sug'oriladigan yerlarning qiyaligi kichik (0,001-0,003), lekin ko'pchilik kartalarning ichida mikro notekisliklar ko'p. boshqacha qilib aytganda, kartalarning ko'pchiligi capital va joriy tekislashlardan o'tkazilmagan.

Buning natejasida sug'orish va suv ko'p sarflanadi, sug'orish bir sutkalab davom etadi, suvchilarning ish unumi past bo'ladi. Suvdan foydalanish koefsinti esa pasayib ketadi.

Ana shunday sharoitda xo'jalikda qo'llanilmagan sug'orish rejimining erlarning meliorativ holatiga, xususan er osti suvlarining dinamik harakatiga va paxta hosiliga ta'sirini o'rganish maqsadida kuzatuv ishlari olib borilgan.

4.1. Ilmiy kuzatuv ishlarining uslubi va bajarish sharoitlari.

Kuzatuvlar №4 bo'limining №3 brigadasi paxta dalalarga olib borilgan. Ko'zatuvi 2 ta dalada o'tkazilgan. Birinchi dala-relifi tekis, suv egatlar bo'ylab bir tekis oqadi.

Dalaning maydoni 8 gektar.

Ikkinchi dala-notekis, kartaning ichi past-baland mikrorelefdan iborat, yer maydon 12 gektar iborat. Ikkala dalaga ham g'o'zaning "buxoro-6" navi ekilgan. Hamma uchatkada bir hil agrotexnika qo'llanilgan. Ikkala dalada ham 4 martadan sug'orilgan. Lakin sug'orish normalari yerlarning tekislanganligiga ko'ra harhil bo'lgan.

Yer osti suvlarining chuqurligi, dalalarga beriladigan suv normalari xo'jalikning gidrotexniki bilan birga o'lchangan, ko'pgina ma'lumotlar gidrotexnikdan olingan. Yer osti suvlarining chuqurligini kuzatish uchun kuzatuv qudug'idan foydalanilgan.

4.2. Tajriba dalasida bajarilgan ishlar.

Tajriba dalalarida quyidagi kuzatuv ishlari olib borilgan;

1. Tajriba dalasining tarixi o'rganilgan ;
2. Tajriba dalasining meliorativ xolati o'rganilgan ya'ni tuproqning sho'rlanish darajasi vayer osti suvining chuqurligi;
3. Tajriba dalalarni sug'orishda suv normalari nazorat qilingan va hisobga olingan;
4. Tajriba dalalarida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar hisobga olingan;

5. G'o'zaning tub soni aniqlangan (vegitatsiyaning boshida va oxirida);
6. Har bird ala bo'yicha paxta xosili hisobga olingan;
7. 1sr paxtaga sarf bo'lgan suv miqdori hisoblangan;
8. Tekislanish darajasi har xil bo'lgan g'o'zaning sug'orish rejimining iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilgan;

4.3 Tajribada dalasida qo'lanilgan agrotexnika tadbirlarini hisobga olish.

Tajribada dalarida agrotexnika ishlari 1997yilning kuzidan boshlangan. Bunda, dalalar dastlab g'o'zapoyadan tozalangan. Keyin fosforli va kaliyli o'g'itlar sepilgan, sof holda hisoblanganda gektariga 120 kg dan fosfor va 50 kg kaliy – RTO-4.2 markali o'g'it sochgich mashinasi yordamida berilgan. Shundan so'ng, yerlar T-4A traktori bilan 30-35 sm chuqirlikda haydaladi.

Erta bahorda mart oyining boshida dalalarda 60 sm kenglikda pushta olingan, keyin pushta egatlari bo'yicha zaxira suvi berilgan, gektariga 1300-1500 m³ dan. So'ngra yer yetilishi bilan "zig-zig" baronalar bilan baronalangan.

Ekishga 4-5 kun qolganda tuproqqa ekish oldi ishlovi berilgan. Yerlarni zapas so'g'orish naijasida tuproq biroz zichlashgan, bigona o'tlar bosib ketgan. Shuning uchun dalalar 12-14 sm chuqirlikka chizillanib keyin "zig-zig" baronasi bilan ikki marta baronalangan, shundan so'ng izidan mola bosilib ekishga tayyor qilinadi.

Ekish 8 gektarliy uchaskada 16 aprelda 12 gektarli dalada esa 18 aprelda o'tkazilgan. Dalaga "Buxoro 6" navi chigiti ekilgan, gektariga 50-60 kg urug' sarflangan. Ekish STX-4 siyalkasi bilan 60sm kenglikga va chuqurlikka ekilgan. Chigit ekilgach kuchliiy yomg'irdan so'ng yer betiga qalin qatqaloq paydo bo'lgan, unga uni yumshatish uchun yengil "zeg-zag" boronasi bilan dalalar diagonaliga boronalandi. Chigit 8-10 ichida qiyg'os unib chiqdi.

G'o'za qator oralariga kompleks ishlov berish. Chigit bir tekis unib chiqib egatlar bilingach, qator oralariga birinchi kompleks ishlov berilgan. KRX-4 markali cultivator bilan agrigatlangan MTZ-50X traktori yordamida ishlov berilgan. Birinchi ishlovda ekish chizig'i yonidagi qatqaloqni yumshatish uchun

kultivatorga rotaukon yuldzichalar urnatilgan, ularni yerga 2-3 sm ga botadigan qilib o'rnatilgan. Begona o'tlarni qirqish uchun har bir qator ichiga ikkitadan biritma 6-8 sm chuqurlikka o'rnatilgan uning orasidan harbi tomonnga ikkitadan 4 ta yumshatgich organlari 6-8 va 8-10 sm chuqurlikka o'rnatilgan. Egatning o'rtasiga esa panja 12-14sm chuqurlikka o'rnatilgan. Kultivatsiya tuproq yaxshi yetilgan davrida o'tkazilgan, uning sifati yani tuproqning maydalanishi agrotexnika tadbirlariga va uni talablariga darajasiga bo'lishi taminlangan. Birinchi kultivatsiyada himoya zonasi 10-12sm qilib qoldirilgan.

Birinchi kultivatsiyadan keyin yagonalash o'tkazilgan. Bunda bir yula egatning xato joylariga evitilgan chigit ekilgan, tuproq tagida qolgan nihollar ochilgan va xar bir 14-16 sm ga 1 tadan sog'lom ko'chat qoldirib yagona qilingan. Shu hisobdan gektariga 100-115 ming tub o'simlik qoldirilgan. Bunday qalinlik "Buxoro-6" navi uchun normal hisoblanadi. Chunki "Buxoro-6" navining shoxalanishi 3-4 kenja tibda kiradi, shuning uchun bu navga kengroq ozuqa maydoni kerak bo'ladi.

Keyingi kultivatsiyalarda ishchi organlar yana 2-4 sm ga chuqurlashtirib o'tkqzilgan. Birinchi sug'orishgacha dalalar 2martaga kultivatsiya qilingan, sungra har bir sug'orishdan keyin kultivatsi qilingan.

Iyun-iyun oylarida suvdan keyin ikki martadan kultivatsiya qilingan. Bunda birinchi kultivatsiya sayozroq keyingisi esa chuqurroq qilib o'tkaziladi. Chunki bizning Qarshi chuli sharoitida katta issiqlikda tuproq namini parlanishidan saqlash uchun ikki maratadanqator oralariga ishlov berish zarur bo'ladi.

Jami bo'lib vegitatsiya davrida 8 marta kultivatsiya qilingan va 3 marta ketmon chopig'i o'tkazilgan, ikki marta xashorotlarga qarshi ximikatlar OBX-28 mashenasi bilan sepilgan.

G'o'zani oziqlantirish.

Xo'jalikda o'g'it yetishmasligi tufayli g'o'za kam normalarda oziqlantirilgan. O'g'itlarning yillik normasi azot bo'yicha 180 kg, fosfor - 120kg, kaliy - 50 kg ni tashkil etgan. Kuzgi shudgor ostiga 120 kg fosfor, 50 kg kaliy, solingan. Ekish

bilan o'g'it berilmagan, aslida esa berilishi kerak edi. Azotning 70 kg birinchi, 50 kg mi ikkinchi sug'orish oldidan berilgan.

Fosforning qolgan qismi (60 kg) g'o'za yoppasiga gullagan davriga berilgan. Fosforli o'g'itlardan oddiy superfosfat bilan ammofos, azotli o'g'itlardan ammiak seletrasi karbomit kaliylaridan kaliy xlor o'g'itlari xo'jalikda mavjut bo'lgan. Shuningdek xo'jalikda organik o'g'itlar xam yetishmaydi.

G'o'zani sug'orish.

Birinchi sug'orishda g'o'za qo'sh egatlab sug'orilgan. Dalaning qiyaligi kichik tuproqning suv o'tkazuvchanligi uchun egatkar qisqa (100-120 m) qilib olingan egatlarga quyilgan suv oqilona sarfi sekundiga 0,8-1,0 l gacha qilib belgilangan. Vegitatsiya davrida ikkala dala ham 4 martadan sug'orildi va sug'orilgan

Birinchi dala tekis bo'lganligi sababli suv sarfi norma darajasida, sug'orishning davomiyligi qisqa-qisqa bo'lgan.

Ikkinchi dala past-balanlikdan iborat bo'lganligi uchun bir joy qo'llab, bir joy chullab suv ichgan. Oqibatda esa sug'orish normalari ortib ketgan.

Ikkala tajribada dalalardagi sug'orish normalari, sug'orish muddatlari va sxemasi xaqidagi ma'lumotlar 4.4.2.1 jadvalda berilgan.

Tjriba dalalarida har bir sug'orish qator oralarida kompleks ishlov berish va oziqlantirishlar bilan uzviy bog'lab olib borilgan.

G'o'zani chekanka qilish

Chekanka-g'o'zani ortiqcha o'sishdan to'tashi va uni hosilga o'tirishini tezlatish maqsadida o'tkaziladi. Tajriba dalasida chekanka g'o'zada 14-16 ta hosil shoxlari paydo bo'lganda o'tkazilgan. Birinchi marta bosh poyaning o'suv ko'rtaklarini chipish ChVX-4 mashensi yordamida o'tkazilgan. Ikkinchi marta yon o'suv shoxlarini chekankasi qo'lda o'tkazilgan.

G'o'zani dafolyasiya qilish.

Paxtani mashenalar yordamida terish maqsadida o'rta tolali g'o'zada tupda 3-4 tadan ko'saklar ochilgan paytda difolyatsiya qilingan. Bunda fropp alfa defolyantiddan gertariga 200-250 g 50 % li kukunsimon preparat 400-600 l suvda eritilib OVX-28 markali er oparati yordamida sepilgan.

Defolyasiya qilingan 8-10 kun o'tgach paxta terimiga kiritilgan.

Paxta xosilini yig'ib olish.

Paxta xosili mashenalar yordamida terilgan. Shuning uchun dalalar avval mashina terimiga tayyorlangan.

Dastavval dalalar ichidagi o'q va tik ariqlar KZO'-0,3 markali tekislagich mashenalar bilan tekislangan. Sungra dalaning boshi va oxirida terim mashenalarining qaytish maydonchalari tayyorlangan.

Birinchi mashena terimi 50-60 % paxta ochilganda ikki qatorli XVN-1,2A markali paxta terish mashenasi bilan terilgan. Undan ketin yerga tukilgan paxta qo'lda terilgan. Sungra 2-terim utkazilgan. Oxirida qolgan ko'raklar SKO-2,4 markali mshenalar yordamida terib olingan. Ko'raklar UPX-1,5 markali ko'rak chuvish mashenasidan o'tkazilib paxtasi ajratilgan.

Tajriba dalasidan yig'ib olingan paxtaning gektar xisobidagi ma'lumoti 4.4.4.1-jadvalda keltirilgan.

4.4. Tajriba natejalari

